

## ZAMONAVIY TA`LIM TIZIMI. KECHA VA BUGUN

**Kamoldinova Mubinabonu Husniddin qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyot  
Universiteti talabasi*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada Oliy ta'lismidagi olib borilayotgan bugungi kundagi islohotlar va amalga oshirilgan ishlari yoritilgan bo'lib, aynan dual ta'lismi yutuqlari va ta'lismi sifatidagi ahamiyatiga urg'u berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Oliy ta'lismi, fan, ishlab chiqarish, ta'lismi sifati, dual ta'lismi, Investitsiya, innovatsiya.*

Oliy talim sohasi har bir mamlakat taraqqiyotining muhum bog'ini sanaladi. Modomiki, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar davlat idoralari xususiy tashkilotlarga mutaxassislar yetishtirib berilar ekan mazkur tarmoqlar rivoji ham bevosita kadrlar salohiyati bilan bogliq. Shuni inobatga olgan holda mamlakatimizda oliy talim tizimini 2030 yilgacha rivojlanish konsepsiysi oshirilayotgani bejiz emas.

2022-2026 yillarga moljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham oliy talim tizimidagi islohotlar alohida korsatib o'tilgan. Mazkur strategiyaning 46-maqсадада oliy ta'lismi bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lismi sifatini oshirish kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini oshirish tolov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini oliy talim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish ko'zda tutilgan.

Albatta bu sayi-xarakatlar natijasida yaqin yillarda oliy ta'lismidagi islohotlar samarasi nafaqat ushbu sohaning o'zi balki mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi boshqa muhum tarmoqlar yuksalishida ham oz aksini topadi deyish mumkun.

Sharq faylasufi Konfutsiy "Bilimsizlik insoniyat uchun eng qorong'u tundir" degandi. Haqiqatdan ham bilim ilm olish baxtga erishish farovon farovon yashshning sanalgan yoli oltin kalitidir. Bu jarayonning to`g`ri va tizimli tashkil etilishi esa bevosita ta'lismi xususan oliy talim tizimiga unda boy korsatayotgan islohotlarga bog'liq.

Bilim olish taraqqiyotning bosh omilidur. Xadisi sharifda xam "Avvalo olim bo'l, laoqal ta'lismi oluvchi yoki tinglovchi ilmu ulamoni sevuvchi bo'lgan" deyiladi. Bunday da`vat har birimizni ta'lismi olish va ilmli insonlarni qadrlashga undab turadi. Qayerda ilmu ma'rifat kuchli bo'lsa osha yer baxt maskani hisoblanadi. Uchinchi renesansga kuchli bilim va tafakkur orqali

erishilishini muhtaram Prezidentimiz ko`p bora ta`kidlaganlar. Shuning uchun uzlusiz ta`lim tizimining barcha bosqichida yoshlarni bilimli va yetuk inson sifatida rivojlantirish biz ziyyolilarning asosiy burchimizdir.

Endi bevosita tizimda amalga oshirilgan va oshirilayotgan yangiliklarga to`xtalsak. Bunga kelib respublikada oliy ta`lim muassasalarini soni 200 ga yaqinlashdi. Yoshlarni oliy ta`lim bilan qamrov darajasi sezilarli darajada oshdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar yangidan-yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. 2021 yildan buyon oliy ta`lim muassasalariga kredit-modul tizimi to`liq tatbiq etildi. Uning joriy qilinishi bilan jahon oliy ta`limiga integrasiyalashuvimiz boyicha katta qadam tashlandi. Elektron ta`lim keng ko`lamda joriy etilmoqda.

Xozirgi kunda oliy ta`lim muassasalarida 40 mingga yaqin professor-o`qituvchilar faoliyat olib bormoqda. Joriy o`quv yilida 4582 nafar chet tili boyicha sertifikatga ega yoshlar magistratura bosqichiga qabul qilindi. Bunday yoshlar oliy talim muassasalari uchun munosib pedagogik kadrlar zahirasi bolib xizmat qiladi. Professor-o`qituchilarni maqomini hisobga oshirish ularning jamiyatdagi obro`sini yaxshilash borasida kop ishlar qilindi.

So`nggi yillarda yurtimiz oliy ta`lim tizimida sodir bolayotgan muhum o`zgarishlardan biri bu- dual talim tizimining tashkil etilganligidir. Dual talim qizqa muddat ichida yosh mutaxassisda qimmatli tajriba va ko`plab professional ko`nikmalar bilan birga akademik darajada va kasbiy malakaga ega bolish imkonini beradi

Malumki Germaniya mehnat bozorida ta`limning mazkur turi katta ahamiyatga ega. Kyoln Iqtisodiy taraqqiyotlar instituti tamonidan o`tkazilgan so`rovnama shuni korsatadiki, oliy ta`lim bitiruvchilari ko`pincha nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda qiynaladilar. Bu esa ta`lim va ishlab chiqarish korxonalari integrasiyasini kuchayishini taqozo etmoqda. Yevropada bu borada qator muvaffaqiyatli islohotlar olib borilmoqda.

Germaniyada dual talim tizimi 50 yil davomida muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Bu tizim qator Yevropa mamalakatlari shuningdek Xitoy Indoneziya Kolumbiya Ekvador va Peru kabi davlatlarda ham qabul qilingan. Bugungi kunda amaliyotga yo`naltirilgan ta`limning afzalliklari dunyoning ko`plab mamlakatlarida kasb-xunar ta`limi loyihalari uchun innovatsion tanlovni boshlagan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi alohida qayd etgan.

Dual talim darsurining nazariy o`quv amaliy qismi professional ta`lim muassasida malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish boshqacha qilib aytsak, ishlab chiqarish bilan bog`liq amaliy qismi korxona yoki tashkilotga amalga oshiriladigan o`qitish turi hisoblanadi. “Dual talim dasturi” esa talim

muassasi va korxona yoxud tashkilotga bitiruvchiga ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarishga qaratilgan professional ta'lim tayyorgarligining asosiy mazmunini belgilovchi ta'lim standartlari malaka talablari o'quv reja o'quv dastur modullari o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to`plamidir.

Ta'lim sifatini taminlash ustuvor vazifa. Yetishtirilayotgan kadrlar har jixatdan raqobatga tayyor bo`lishi kerak.O'quv jarayonida talim sifatini taminlash omillari hisobga olinmoqda. Birinchidan meyoriy-xuquqiy xujjatlar takomollashmoqda. O'quv jarayoning asosiy xujjati bolgan o'quv rejalaridagi fanlarning soni qisqartirildi, mutaxassislik fanlarini chuqur o'rgatishga e'tibor qaratildi.To`rt yil davomida talaba 240 kredit toplasa boldi. Bunda belgilangan fanlarni talab darajasida o`zgartirishi yetarli. Ikkinchidan professor o`qituvchilar ortiqcha qog`ozbozlikdan xoli bolishdi, barcha jarayonlarning elektron tartibi yo`lga qoyildi, ularning faoliyatiga aralashuvlar cheklandi. Bu esa o`ylaymanki, ta'lim sifatini ijobiy yo`l bilan yuqori darajaga ko`tarishga yana bir omil bo`ldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O`zbekiston Respublikasi qonuni, 23.09.2020 yildagi O`RQ-637-SON
2. O`zbekiston respublikasi prezidentining 08.10.2019-yildagi PQ-5847-son farmoni
3. . Jahon falsafasi tarixidan lavhalar / Nazarov Q. tahriri ostida. - Toshkent: Sharq, 2005.
4. Jervolino D. Paul Ricouer: une hermeneutique de la condition humaine / D. Jervolino. P., 2003.
5. [www.wikislovar.ru](http://www.wikislovar.ru)
6. [://www.philosophypages.com/dy/](http://www.philosophypages.com/dy/)
6. Горшкова, Е. А., & Акбаров, А. Н. О. (2021). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В СОВРЕМЕННОЙ РОССИИ. In Участие образовательных организаций в противодействии коррупции (pp. 43-48).
7. Джина, Ж., & Личман, Е. Ю. (2021). СКРИПЧНОЕ ИСКУССТВО СОВРЕМЕННОГО КАЗАХСТАНА. Студенческий форум, 10.
8. Turgunov, E., Abdumajidov, I. B. O. G., Anvarov, A. A. O. G., & Valiev, R. A. O. G. (2022). MOYLASH MATERIALLARINING QOVUSHQOQLIK XUSUSIYATLARIGA HARORAT TA'SIRINI O'RGANISH. Academic research in educational sciences, 3(1), 419-425.

9. Salmonov, A., & Saidov, I. (2021, June). THE POLICY OF THE SOVIET AUTHORITIES IN THE TURKESTAN ASSR TO RESTRICT WAQF PROPERTY (BASED ON MATERIALS FROM THE FERGANA VALLEY). In Конференции.
10. Тошпўлатова, С. К. (2022). МУСИҚИЙ ТЎГАРАКЛАР ФАОЛИЯТИДА ЎСМИРЛАРДА МИЛЛИЙ ФОЯ ТУШУНЧАЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ МАЗМУНИ. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 13(2), 83-86.
11. Akbarov, A. K. (2012). Communication Approach in English Through the Internet. Cambridge Scholars Publishing.
12. Рахимов, А. Ш. (2022). ҲАРАКАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАҲАЙДОВЧИНИНГ МАҲОРАТИ. Conferencea, 151-154.
13. Рахимов, А. Ш., & Алирзаев, И. Ш. О. (2018). СОВМЕСТНЫЙ РАСЧЕТ НАДЗЕМНОЙ КОНСТРУКЦИИ С ГРУНТОВЫМ ОСНОВАНИЕМ НА СЕЙСМИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ. Студент и наука, (2), 106-114.
14. Алирзаев, И. Ш. О., Сова, Н. С., Сухотерин, А. В., & Рахимов, А. Ш. (2018). ДИНАМИЧЕСКИЕ ИСПЫТАНИЯ ГРУНТОВ ПРИ ТЕХНИЧЕСКОМ ОБСЛЕДОВАНИИ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ. In Обследование зданий и сооружений: проблемы и пути их решения (pp. 5-12).